


2022-yilning yanvar-iyunida Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-iyunida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 24 650,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,1 %ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,4 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3%ga yetdi.




2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	20 526,7	24 650,4	104,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 841,4	23 810,5	103,9
mahsulotlarga sof soliqlar	685,3	839,9	108,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 841,4	23 810,5	103,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 588,8	7 887,3	102,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 238,3	6 572,5	107,2
sanoat	3 829,9	4 847,3	106,6
qurilish	1 408,4	1 725,2	109,0
xizmatlar	8 014,3	9 350,7	103,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 688,9	1 891,1	100,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 278,4	1 471,4	109,5
boshqa xizmat tarmoqlari	5 047,0	5 988,2	102,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 298,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 %ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,6%ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4%ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 33,1 %ni, sanoat tarmog'i 20,4 %ni, qurilish 7,2 %ni va xizmatlar sohasi 39,3 %ni tashkil qildi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	96,6
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	3,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	33,2	33,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,4	27,6
sanoat	19,3	20,4
qurilish	7,1	7,2
xizmatlar	40,4	39,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,5	7,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,4	6,2
boshqa xizmat tarmoqlari	25,5	25,2

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 33,1 %), sanoatda – 106,6 % (20,4 %), qurilishda – 109,0 % (7,2 %), xizmatlar sohasida – 103,1 % ni (39,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 100,4 % (7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,5 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,4 %dan (25,2 %) iborat bo'ldi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida salbiy 0,3 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,0 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,2 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 4,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi

2022- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 118,7 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 117,1 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 67,0 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 68,4 %).

2021- yil

68,4 %

2022- yil

67,0 %

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.